
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 180 sahifa,
2-oktyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Şoumarov Ğ. B. – Doctor of Psyçological Sciences, Academician
Qirğizboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Persçool and Sçool Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şaripov Ş.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şermuhammadov B.Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoşev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep Özyurek – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Ça – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Çief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi Özbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Şomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Ş.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Teçnical Sciences
Yuldaşeva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldaşeva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Taşkent State University of Economics
Aşurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Presçool and Sçool Education of the Kaşkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researçer of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida deontologik tamoyillar asosida nizolarni boşqariş 10
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Sun'iy intellekt asosida maktab öquvçilarining matematik xatolarini diagnostika qiliş va individual tavsiyalar şakllantirişning gibrid adaptiv modeli 15
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Abdurazzoqova Zebuniso Tolmas qizi

Harbiy xizmatçilarning pedagogik mahoratini oşirişning ilmiy-metodik asoslari 21
Yadgarov Ravşan Ergaşeviç

Inklyuziv ta'limda logopedik texnologiyalardan foydalaniş metodikasi 27
Ikramova Dilafruz Furqat qizi, Ilhomova Malikaxon Dilşod qizi

Faoliyat markazlari vositasida maktabgaça yoşdagi bolalarning raqamli savodxonligini şakllantiriş metodikasi 30
Jo'rayeva Gulira'no Nazirjon qizi

Bölajak tasviriy san'at öqituvçilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirişda an'anaviy naqqoşlik san'atining pedagogik imkoniyatlari 36
Rözmetov Quvondiq Şanazaroviç

Pedagogik hamkorlik asosida ösmir yoşdagi öquvçilarda ijtimoiy voqelikka sezgirlikni tarbiyalaş mexanizmlari 42
Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi

Talabalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini jismoniy madaniyat vositasida rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 47
Imomov Asliddin Abdurazoqoviç

Harakatli öyinlar yordamida boşlanğiç sinf öquvçilarining harakat faolligini oşiriş usullari 51
Ernazarova Ziyoda Erkin qizi

Sun'iy intellektning inson fikrlaş qobiliyatiga ta'siri: intellektual rivojlaniş uçun imkoniyatlar va tafakkur zaiflaşuvi xavfi 55
Tölaganov Abdumalik Abdiraximoviç

Jadidçilik harakatining vujudga kelişining ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlari 60
Nişonov Muhammad Bahodir öğli, Pulatov Şerdor Nematjonoviç

Maktabgaça ta'lim taşkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari 66
A'zamova Malohat Nadjimovna

Söz yasalişi, morfologiya va sintaksisning özига xos xususiyatlari 70
Bobojanov Şaripboy Xudoşukiroviç

Inklyuziv ta'limda diskriminatsiyani oldini oliş va ularni psixologik qöllab quvvatlaş tamoyillari 74
Bozorova Muxlisa

Neyro logopediya va biometriya 78
Foiqova Diyora Anvar qizi

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş 83
Ibrohimova Şahlo Umarali qizi

3–4-sinf öquvçilarining badiiy asarlar öqişga qiziqişini oşirişning metod, şakl va vositalari 88
Rasulova Zohida Sindorovna

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy-refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik tizimini integratsiyalaş 92
Talabova Dilrabo Tolibova

Informatika va uni öqitiş metodikasi fanini öqitişda adaptiv öquv dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanişning metodik tizimi 98
Xomidov Zohidjon Adhamjon öğli

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов в условиях цифровизации образования 104
Шаланков Константин Константинович

Pedagogik loyihalaştiriş orqali öquvçilarning şaxsiy va ijtimoiy rivojlanişini ta'minlaş 109
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyeviç, Nazarova Nilufar Ismailovna

Dual ta'lim va refleksiv kompetensiya: pedagog kasbiy rivojlanişining yangi imkoniyatlari 113
S. R. Mansurova

Bixevioristik yondaşuv futurologik könikmalarni rivojlantiruvçi pedagogik va psixologik omil sifatida 118
Nişonov Nodir Alimjanoviç

Linguoculturological Features of the Concept "Respect And Esteem" in English and Uzbek Cultures 121
Naimova Dildora Kaxramonovna

Klasterli yondaşuv asosida bölajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini rivojlantiriş 125
Sotbarov Atabek Asilbek öğli

Nizolar paydo bölişining psixologik omillari 132
Olimov Saydullo Soxobjonoviç

Matematikadan milliy öquv dasturi loyihasi mazmuni haqida 141
Djumayev Mamanazar Irgaşeviç

Professional Requirements for Prospective English Language Teachers in Teaching Writing to Students With Special Educational Needs 149
D. X. Saydazimova

"Bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmuni va özaro boğliqligi 154
Djabbarova Feruza Odilovna

Texnologiya darslarida sun'iy intellekt vositalari orqali öquvçilarning ijodiy fikrlaş qobiliyatini rivojlantiriş imkoniyatlari 161
Raxmatov A'zam Aşur öğli, Tursunova Sevara Jamşid qizi

Autistik spektr buzilişli bolalarning luğat boyligini rivojlantiriş va muloqot ko'nikmalarini şakllantiriş metodikasi 165
Tuxtayeva Maxfirat

Maktabgaça tayyorlov yoşdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berişda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalaniş yöllari, şakl va vositalari 170
O'razova Maqsuda Şuhratning qizi

Raqamli hamkorlikda refleksiya va muqobil yeçimlarni yaratişning metodik imkoniyatlari 175
Yusupov Muxtorbek Roximoviç

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

"BILINGVAL ÖQUV MUHITI" VA "KREATIV MODELLAŞTIRIŞ" TUŞUNÇALARINING MAZMUNI VA ÖZARO BOĞLIQLIGI

Djabbarova Feruza Odilovna
Çirçiq davlat pedagogika universiteti
Fakultetlararo çet tillar kafedrasi katta öqituvçisi
E-mail: feruzadjabbarova82@gmail.com

Annotatsiya: Uşbu maqola tadqiqotning tuşunçalar tizimini aniqlaştirişga bağişlangan. Unda "bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" atamalarining ilmiy mazmuni inklyuziv ta'lim kontekstida körib çiqilib, ular örtasidagi aloqalar oçib berilgan. Ta'lim muhiti, ikki tillilik, modellaştiriş va ijodkorlik haqidagi psixologik, lingvistik va pedagogik qaraşlar qiyosiy tahlil qilinib, uşbu hodisalarning takrorlanuvçi muhim belgilari ajratilgan.

Şu asosda bilingval öquv muhitining törtta komponenti tavsiflangan, ijodiy modellaştirişning an'anaviy yondaşuvdan farqi körsatilgan va ikki tuşunçani birlaştiruvçi tört turdagi munosabat (ob'ekt-jarayon, maqsad-vosita, tuzilmaviy, natija-qayta aloqa) asoslangan. Maqola yakunida tayanç va integrativ tuşunçalarning yangi ta'riflari berilgan.

Kalit sözlar: inklyuziv ta'lim, ta'lim muhiti, bilingval öquv muhiti, bilingvizm, modellaştiriş, kreativ modellaştiriş, kreativlik, terminologik tahlil.

Abstract: This article aims to clarify the conceptual framework of the research. It considers the scientific meaning of the terms "bilingual learning environment" and "creative modeling" in the context of inclusive education and reveals the links between them. A comparison of psychological, linguistic and pedagogical views on the learning environment, bilingualism, modeling and creativity reveals their recurring essential features.

On this basis, four components of a bilingual learning environment are described, the difference between creative and traditional modeling is shown, and four types of relations between the concepts (object-process, goal-means, structural, and result-feedback) are substantiated. The article concludes with new definitions of the basic and integrative concepts.

Key words: inclusive education, educational environment, bilingual learning environment, bilingualism, modeling, creative modeling, creativity, terminological analysis.

Аннотация: Статья посвящена уточнению понятийного аппарата исследования. В ней научное содержание терминов "билингвальная образовательная среда" и "креативное моделирование" рассматривается в контексте инклюзивного образования, выявляются связи между ними. На основе сопоставления психологических, лингвистических и педагогических взглядов на образовательную среду, двуязычие, моделирование и творчество выделены их устойчивые существенные признаки.

Охарактеризованы четыре компонента билингвальной образовательной среды, показано отличие творческого моделирования от традиционного, обоснованы четыре типа отношений между понятиями ("объект-процесс", "цель-средство", структурные, "результат-обратная связь"). В заключение предложены новые определения базовых и интегративного понятий.

Ключевые слова: инклюзивное образование, образовательная среда, билингвальная образовательная среда, билингвизм, моделирование, креативное моделирование, креативность, терминологический анализ.

KIRIŞ

Har bir fan öz tuşunçalar tizimiga tayanib rivojlanadi: atamalarning mazmuni aniq bölmasa, nazariy xulosalar ham, amaliy tavsiyalar ham noaniq bölib qoladi. Bu ayniqsa yangi şakllanayotgan yönalişlar uçun muhim. Sönggi ön yilliklarda şunday yönalişlardan bir - ikki tilli va inklyuziv ta'limning tutaşuvidagi masalalar jadal rivojlanmoqda. Jahon miqyosida har bir bolaning umumiy ta'lim muassasasida öqiş huquqi e'tirof etilgan, mamlakatimizda esa bu huquq qonunçilik darajasida mustahkamlanib [1], alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni umumta'lim maktablariga qamrab olişning davlat konsepsiyasi qabul qilingan [2].

Özbek va rus tillari yonma-yon amal qiladigan maktablarimizda boşlanğiç sinf öquvçilari öqişga turli til tajribasi bilan keladi: birlari faqat bitta tilda erkin sözlaşadi, boşqalari esa uyda bir tilda, köçada boşqa tilda muloqot

qiladi. Inklyuziv sinfda bu farqlarga bolalarning nutqiy, kognitiv va hissiy rivojlanişidagi individual xususiyatlar ham qöşiladi. Natijada öqituvçi oldida ikki tildan ongli foydalanadigan, ayni paytda har bir bolaga moslaşa oladigan öquv şaroitini yaratiş vazifasi turadi.

Uşbu vazifani hal etişdagi asosiy qiyinçiliklardan biri terminologik noaniqlikdir. Ilmiy işlar va uslubiy qöllanmalarda "bilingval muhit", "ikki tilli muhit", "til muhiti", "bilingval ta'lim muhiti" atamalari köpinça sinonim sifatida qöllaniladi, "modellaştiriş", "loyihalaş" va "kreativ modellaştiriş" esa bir-biridan farqlanmaydi. Tuşunçalarning çegaralari aniqlanmagan ekan, muhit modelini quriş, uning mezonlarini belgilaş va natijalarni ölçaş ham yetarli ilmiy asosga ega bölmaydi. Şu bois tuşunçalar mazmunini oydinlaştiriş tadqiqotning dastlabki va zarur qadamidir.

Işning maqsadi - inklyuziv ta'lim kontekstida "bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmunini terminologik tahlil asosida aniqlaştiriş hamda ularning özaro aloqasini oçib beriş. Buning uçun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) mavzuga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilib, yetarli örganilmagan jihatlarni aniqlaş;

2) "ta'lim muhiti" va "bilingvizm" tuşunçalarining muhim belgilarini ta'riflarning kontent-tahlili asosida ajratiş;

3) özbek-rus ikki tilliligi şaroitini hisobga olgan holda "bilingval öquv muhiti" tuşunçasining mualliflik ta'rifini va komponentlarini asoslaş;

4) kreativ modellaştirişni an'anaviy modellaştiriş bilan qiyoslab, uning özига xos belgilari va bosqiçlarini aniqlaş;

5) ikki tuşunça örtasidagi munosabat turlarini belgilab, integrativ tuşunça ta'rifini işlab çiqiş.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Ta'lim muhiti haqidagi ilmiy qaraşlarning ildizi L.S. Vigotskiyga borib taqaladi: olim bola rivojlanişining manbaini uning ijtimoiy muhitida körgan va rivojlaniş kattalar bilan hamkorlikda, "yaqin rivojlaniş zonasi"da yuz berişini körsatgan [4].

U. Bronfenbrenner rivojlanişni oila, maktab va jamiyat kabi içma-iç joylaşgan tizimlar kontekstida tahlil qilib, muhitning ekologik modelini yaratgan [11].

V.A. Yasvin ta'lim muhitini şaxsni şakllantiruvçi ta'sirlar va uning özini namoyon qilişi uçun yaratilgan imkoniyatlar tizimi sifatida talqin etib, uni modellaştiriş va loyihalaşning metodikasini işlab çiqqan [9].

V.I. Slobodçikov fikriça, ta'lim muhiti oldindan tayyor bölmaydi, u öqituvçi va öquvçilar hamkorligi jarayonida paydo böladi [5].

Ikki tillilik muammosini rus tilşunosligida Ye.M. Vereşçagin çuqur örgangan: u bilingvizmni qanday şakllanganligi, tillar qay darajada egallanganligi va ular bir-biriga qanday munosabatda ekanligiga qarab guruhlagan [3].

Bir tildagi könikmalarning ikkinçisiga ötişi haqidagi ğoya J. Kamminsga [12], translingvizm konsepsiyasi esa O. Garsiya va L. Veyga [16] tegişli.

Inklyuziyani maktabning madaniyati, siyosati va kundalik amaliyotini bir vaqtda özgartiriş jarayoni sifatida körgan T. But va M. Eynskou ğoyalari [10] bu sohaning nazariy tayançiga aylangan.

Bilingvizm va inklyuziya tutaşuvida F. Jenesi va uning hamkasblari tadqiqoti alohida ahamiyatga ega: ular nutqida yoki rivojlanişida muammosi bor bolalar ham ikki tilni özlaştira olişini dalillar bilan körsatgan [17].

Modellaştirişning falsafiy-gnoseologik asosi V.A. Ştoff tomonidan işlab çiqilgan: uning fikriça, model örganilayotgan ob'ektning örnini bosib, u haqida yangi bilim beradi [7].

Ob'ektni yaxlit va içki boğlanişlari bilan örganiş talabini E.G. Yudin metodologik tamoyil darajasiga kötargan [8].

Ijodkorlik psixologiyasida bitta savolga köplab yeçim izlaş qobiliyatini ifodalovçi "divergent tafakkur" atamasi J. Gilford nomi bilan boğliq [18]; ijodiy tafakkurni ölçaşning tört körsatkiçi - ravonlik, moslaşuvçanlik, özига xoslik va işlab çiqilganlik esa E. Torrens tomonidan taklif qilingan [20].

Xorijiy tadqiqotlarda bilingval va inklyuziv ta'lim tutaşuviga e'tibor tobora ortmoqda. Xususan, L. Padiya, M. Çoe-Penya va J. Fuong translingvizm va ta'limning universal dizaynini (UDL) birlaştirgan TrUDL yondaşuvini taklif etib, öqituvçi "yo UDL, yo köp tilli qöllab-quvvatlaş" tarzidagi tanlovdan voz keçib, ularni uyğunlaştirişi kerakligini ta'kidlagan [19]. Bu xulosa bilingval muhitni loyihalaşda til va inklyuziv qöllab-quvvatlaşni bir-biridan ajratmasdan, yaxlit tizim sifatida köriş zarurligini tasdiqlaydi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida A.A. Turdaliev işini alohida qayd etiş lozim: muallif maktab öqituvçilarini bilingv bolalar bilan işlaşga tayyorlaşning pedagogik jihatlarini tahlil qilib, ikki tilli öquvçilar uçun qulay ta'lim muhitini yaratişda öqituvçilarning maxsus tayyorgarligi, madaniyatlararo muloqot könikmalari va öquv materiallarini moslaştiriş muhimligini asoslagan [6].

U. Fayziev va Ö. Fayziev mamlakatimizda inklyuziv ta'limning şakllaniş jarayonini, uni samarali joriy etiş şartlarini hamda inklyuziv muhitni rivojlantirişga tösqinlik qiluvçi omillarni tahlil qilib, ularni bartaraf etiş yöllarini xalqaro tajriba asosida taklif etgan [14].

Uşbu tadqiqotlar bilingvizm va inklyuziya masalalari mahalliy kontekstda dolzarb ekanini körsatadi, biroq ular hozirça bir-biridan alohida örganilmoqda.

Sönggi yillarda mavzuga yaqin boşqa mahalliy tadqiqotlar ham paydo bölmoqda: masalan, O. Fayzieva Buxoro viloyati misolida köp tilli ta'limning inklyuziv ta'limni rivojlantirişdagi rolini SWOT-tahlil orqali örgangan [15]. Biroq bu işlarda bilingval öquv muhiti tuşunçasining mazmuni va uni kreativ modellaştiriş masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti bölmagan.

Körib çiqilgan manbalarda ta'lim muhiti, ikki tillilik va modellaştiriş bir-biridan mustaqil ravişda, har biri öz fani doirasida tahlil qilingan. Ularni inklyuziv sinfdagi bilingval muhit va uning ijodiy modellaştirilişi nuqtai nazaridan yagona tuşunçalar tizimiga keltiriş vazifasi hali yeçilmagan. Mazkur muallifning oldingi tadqiqotida ham mamlakatimiz maktablarida öquvçi faolligiga tayanuvçi yondaşuvlarga ötiş dolzarb ekani körsatilgan edi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual (sifat) tadqiqot sifatida rejalaştirildi. Adabiyotlar tahlili natijalaridan kelib çiqib, tadqiqot diqqat markaziga tuşunçalarning mazmuniy çegaralarini aniqlaş va ularni özbek-rus ikki tilliligi hamda inklyuziv ta'lim kontekstiga moslaştiriş qöyildi. Metodologik asosni tizimli yondaşuv [8] va ta'lim muhitini modellaştiriş hamda loyihalaş ğoyalari [9] taşkil etdi.

Tadqiqot ob'ekti - inklyuziv ta'lim şaroitidagi bilingval öquv jarayoni; **predmeti** - "bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmuni va özaro aloqasi.

Manbalar bazasini şakllantirişda uçta mezonga amal qilindi:

- manbaning ta'lim muhiti, bilingvizm, inklyuziv ta'lim, modellaştiriş yoki kreativlik muammosiga bevosita tegişliligi;
- ilmiy naşrda e'lon qilinganligi;
- özbek, rus yoki ingliz tilida bölişi.

Klassik nazariy işlar bilan birga sönggi yillarda e'lon qilingan xorijiy tadqiqotlar Consensus va SciSpace ilmiy ma'lumotlar bazalari orqali, mahalliy tadqiqotlar esa (A.A. Turdaliev, U. va Ö. Fayzievlar, O. Fayzieva işlari) respublika ilmiy jurnallari orqali tanlandi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasidan (lex.uz) olindi. Natijada 20 ta manbadan iborat baza şakllantirildi: şundan 2 tasi me'yoriy-huquqiy hujjat, 4 tasi mahalliy, 14 tasi xorijiy va rus tilidagi ilmiy naşr.

Tadqiqot tört bosqiçda amalga oşirildi.

1. Tayyorlov bosqiçida bibliografik tahlil orqali manbalar izlab topildi va yuqoridagi mezonlar asosida saralandi.
2. Tahliliy bosqiçda terminologik tahlil va ta'riflarning kontent-tahlili ötkazildi: har bir ta'rif mazmuniy birliklarga ajratilib, kamida ikki manbada takrorlangan belgilar tuşunçaning muhim belgisi sifatida qabul qilindi (1-jadval).
3. Sintez bosqiçida tizimlaştiriş va umumlaştiriş metodlari yordamida mualliflik ta'riflari şakllantirildi, bilingval öquv muhitining komponentlari aniqlandi va kreativ modellaştiriş an'anaviy modellaştiriş bilan qiyoslandi (2- va 3-jadvallar).
4. Konseptual modellaştiriş bosqiçida ikki tuşunça örtasidagi munosabat turlari belgilanib, integrativ tuşunçaning ta'rifi işlab çiqildi (4-jadval).

TAHLIL VA NATIJALAR

1. "Muhit" va "ta'lim muhiti" tuşunçalari

"Muhit" tuşunçasi keng ma'noda insonni örab turgan va uning hayotiy faoliyatiga ta'sir etuvçi tabiiy va ijtimoiy şart-şaroitlar majmuini bildiradi. Pedagogikada esa bu tuşunça "ta'lim muhiti" şaklida torroq, maqsadli ma'noda qöllaniladi. Bu boradagi yetakçi olimlarning fikrlari 1-jadvalda qiyosiy tarzda berilgan.

1-jadval: **"Ta'lim muhiti" tuşunçasiga oid ilmiy qaraşlar**

Muallif	Tuşunçaning talqini	Asosiy belgisi
L.S. Vigotskiy [4]	Ijtimoiy muhit bola rivojlanişining manbai; rivojlaniş kattalar va tengdoşlar bilan hamkorlikda yuz beradi	Rivojlantiruvçilik
U. Bronfenbrenner [11]	Inson rivojlanişi özaro boğliq tizimlar (oila, maktab, jamiyat) doirasida keçadi	Tizimlilik

Muallif	Tuşunçaning talqini	Asosiy belgisi
V.A. Yasvin [9]	Şaxsning şakllanişiga ta'sir etuvçi va rivojlaniş uçun imkoniyatlar yaratuvçi şart-şaroitlar tizimi	Imkoniyatlar majmui
V.I. Slobodçikov [5]	Muhit tayyor holda berilmaydi, ta'lim sub'ektlarining özaro hamkorligida şakllanadi	Sub'ektlararo hamkorlik

1-jadvaldan körinib turibdiki, turli mualliflar ta'lim muhitining turli jihatlariga urğu bergan. Ularni umumlaş-tirib, ta'lim muhitining quyidagi muhim belgilarini ajratiş mumkin:

- maqsadlilik (muhit ma'lum pedagogik maqsad asosida taşkil etiladi);
- tizimlilik (u özaro boğliq komponentlardan iborat);
- rivojlantiruvçilik (öquvçining yaqin rivojlaniş zonasiga yönaltirilgan);
- sub'ektlararo hamkorlik (u öqituvçi va öquvçilarning özaro ta'sirida şakllanadi);
- imkoniyatlilik (har bir öquvçiga özini namoyon qiliş imkonini beradi).

Uşbu belgilar keyingi tahlil uçun tayanç vazifasini bajaradi.

2. "Bilingvizm" va "bilingval ta'lim" tuşunçalari

Bilingvizm (ikki tillilik) şaxsning ikki tilni muayyan darajada egallaşi va ularni muloqot vaziyatiga qarab navbatma-navbat qöllaşi sifatida ta'riflanadi [3]. Ilmiy adabiyotlarda bilingvizmning bir neça turlari ajratiladi:

- tillarni egallaş darajasiga köra muvozanatli (ikkala til teng darajada) va dominant (bir til ustun);
- şakllaniş şaroitiga köra tabiiy (oila va ijtimoiy muhitda) va sun'iy (ta'lim jarayonida);
- ikkinçi tilning birinçi tilga ta'siriga köra qöşimça (additiv) va örnini bosuvçi (subtraktiv) bilingvizm [12].

Bilingval ta'lim deganda dars va maşğulotlarda ikki tildan ham bilim beriş, ham özaro muloqot qiliş uçun rejali foydalaniş tuşuniladi. Bunday ta'limning nazariy asosi şundaki, ona tilida egallangan tuşunça va malakalar boşqa tilni örganişda "köprik" vazifasini ötaydi; demak, ikkinçi til birinçisini siqib çiqariği emas, aksinça, unga suyaniği lozim [12]. Translingvizm yondaşuvida esa bola fikrini ifodalaş uçun özi biladigan barça til vositalarini erkin işga soladi [16].

Özbek-rus bilingvizmi şaroitida boşlanğiç sinf öquvçilarining aksariyati dominant bilingvizmga ega: bir til (köpinça ona tili) ustun, ikkinçi til esa turli darajada egallangan böladi. Inklyuziv sinfda bunga nutqiy rivojlaniş-dagi individual farqlar ham qöşiladi. F. Jenesi va hammualliflarining xulosasiga köra, bunday bolalar uçun ikki tillilik tösiq emas, balki töğri taşkil etilganda qöşimça resursdir [17]. Demak, inklyuziv şaroitda qöşimça (additiv) bilingvizmni şakllantirişga yönaltirilgan ta'lim muhiti zarur.

3. "Bilingval öquv muhiti" tuşunçasining mazmuni

Avvalo "til muhiti" va "bilingval öquv muhiti" tuşunçalarini farqlaş lozim. Til muhiti - insonni örab turgan va öz-özidan, stixiyali ravişda ta'sir etuvçi nutqiy vaziyatlar majmui. Bilingval öquv muhiti esa pedagogik maqsad asosida ongli ravişda taşkil etiladi, boşqariladi va baholanadi. Şu farqni hamda yuqorida ajratilgan ta'lim muhiti belgilarini hisobga olib, quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi.

Bilingval öquv muhiti - bu ikki til vositasida öqitiş, muloqot va hamkorlikni ta'minlaş maqsadida pedagog tomonidan ongli ravişda yaratiladigan, mazmun, muloqot, hissiy kayfiyat va öquv vositalari birligidan iborat şart-şaroitlar tizimi bölib, u öquvçilarning har ikki tilda rivojlaniğiga xizmat qiladi.

Ta'rifda tilga olingan tört tarkibiy qism va ularning inklyuziv sinfdagi köriniği 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval: **Bilingval öquv muhitining komponentlari**

Komponent	Mazmuni	Inklyuziv şaroitdagi xususiyati
Mazmuniy	Ikki tildagi mavzuli materiallar, matnlar va luğat	Mazmunning turli murakkablik darajalarida taqdim etiliği
Kommunikativ	Ikki tilda muloqot, hamkorlik va fikr almaşiş vaziyatlari	Har bir bolaning muloqotga jalb etiliği, tilni tanlaş erkinligi
Hissiy-motivatsion	Psixologik xavfsizlik, qiziqiş va muvaffaqiyat hissi	Xatodan qörqmaslik, har bir yutuqning qadrlaniği
Resurs	Körgazmali, audio, taktil va raqamli vositalar	Köp sensorli vositalar, UDL tamoyillariga muvofiqlik

2-jadvalda körsatilgan komponentlar özaro uzviy boğliq. Masalan, resurs komponenti boy bölsa-yu, hissiy-motivatsion komponent zaif bölsa, alohida ta'lim ehtiyojli öquvçi vositalardan foydalanişga jur'at qilmaydi. Demak, muhit tarkibiy qismlarining oddiy yiğindisi emas: uning sifati qismlar örtasidagi muvozanat bilan belgilanadi [8; 11].

Misol tariqasida boşlanğiç sinfdagi "Fasllar" mavzusidagi maşğulotni körib çiqamiz. Mazmuniy komponent darajasida mavzuga oid luğat özbek va rus tillarida rasmli kartoçkalar şaklida tayyorlanadi. Kommunikativ komponent juftlikda işlaşni nazarda tutadi: ikkinçi tilni yaxşiroq biladigan öquvçi şerigiga yordam beradi, vazifani muhokama qilişda esa har bir öquvçi özига qulay tildan foydalanadi. Hissiy-motivatsion komponent öyin elementlari va har bir javobni rağbatlantiriş orqali ta'minlanadi. Resurs komponentida köriş, eşitiş va harakatga asoslangan vositalar (rasmlar, qöşiq, harakatli öyin) uyğunlaştiriladi. Bu misol bilingval öquv muhiti komponentlarining amalda qanday özaro boğlanişini körsatadi.

Inklyuziv şaroitda bilingval öquv muhitining quyidagi özига xos belgilari namoyon böladi: til va rivojlaniş xilma-xilligini qadriyat sifatida tan oliş; ikki tilni bir-biriga tayanç sifatida qöllaş; axborotni turli kanallar orqali taqdim etiş; öquvçilar örtasidagi hamkorlikni muhitning asosiy resursi sifatida köriş. Bu belgilar bilingval öquv muhitini oddiy til muhitidan ham, an'anaviy sinf muhitidan ham farqlab turadi.

4. "Modellaştiriş" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalari

V.A. Ştoff ta'rifiga köra, model - tadqiq etilayotgan ob'ektni aks ettiruvçi va uni örganiş jarayonida ob'ekt haqida yangi ma'lumot oliş imkonini beruvçi tizim [7]. Pedagogik modellaştiriş esa pedagogik hodisa yoki jarayonning soddalaştirilgan, lekin uning muhim xususiyatlarini saqlagan modelini yaratiş va u orqali jarayonni tuşuntiriş, başorat qiliş va loyihalaşdir. Modellaştiriş va loyihalaş yaqin tuşunçalar bölsa-da, ular bir xil emas: modellaştiriş ob'ektning tuzilmasi va içki boğliqliklarini oçib beradi, loyihalaş esa şu model asosida aniq amaliy harakatlar rejasini işlab çiqadi [9].

Kreativlik tuşunçasi J. Gilford tomonidan divergent tafakkur, ya'ni bitta masalaga köplab turli yeçimlar topiş qobiliyati sifatida ta'riflangan [18]. E. Torrens kreativlikning törtta mezonini ajratgan: ravonlik (ğoyalar soni), moslaşuvçanlik (turli strategiyalar örtasida ötiş), özига xoslik (noyob yeçimlar) va işlab çiqilganlik (ğoyani batafsil rivojlantiriş) [20]. Uşbu mezonlarni öqituvçining modellaştiriş faoliyatiga tatbiq etsak, kreativ modellaştiriş öqituvçining muhitning bir neçta muqobil variantlarini yaratişi, sinf şaroitiga qarab strategiyani özgartira olişi, özига xos pedagogik yeçimlar topişi va ularni batafsil işlab çiqişida namoyon böladi.

Yuqoridagilarni umumlaştirib, tuşunçani quyidagiça ta'riflaymiz: kreativ modellaştiriş - pedagogning aniq sinf şaroiti va bolalarning şaxsiy ehtiyojlarini tahlil qiliş asosida öquv muhiti modelining bir neça muqobil variantlarini ijodiy yaratişi, ulardan eng maqbulini tanlaşi hamda kuzatuv ma'lumotlariga tayanib uni muntazam yangilab boriş. An'anaviy modellaştiriş bilan qiyoslaganda uning özига xos jihatlari 3-jadvalda körsatilgan.

3-jadval: **An'anaviy va kreativ modellaştirişning qiyosiy tavsifi**

Belgi	An'anaviy modellaştiriş	Kreativ modellaştiriş
Modelning xarakteri	Yopiq, özgarmas	Oçiq, özgaruvçan
Manbai	Tayyor andoza va namuna	Sinf va har bir öquvçining ehtiyoji
Öqituvçining örni	Tayyor modelni ijro etuvçi	Tadqiqotçi va loyihaçi
Öquvçining örni	Ta'sir ob'ekti	Muhitning hammuallifi
Tillarning qöllanilişi	Tillar qat'iy ajratilgan	Tillar moslaşuvçan, bir-biriga tayanç
Baholaş	Yakuniy	Doimiy, qayta aloqaga asoslangan
Yeçimlar soni	Bitta "töğri" variant	Bir neçta muqobil variant

3-jadvaldan körinib turibdiki, kreativ modellaştirişning asosiy belgisi modelning oçiqligi va özgaruvçanligidir. Bu xususiyat aynan inklyuziv sinf uçun muhim, çunki bunday sinfda öquvçilarning ehtiyojlari xilma-xil va özgaruvçan böladi, bitta tayyor andoza esa ularning barçasini qamrab ololmaydi.

Kreativ modellaştiriş jarayoni tört bosqiçda keçadi.

Birinçi, diagnostik bosqiçda öqituvçi sinfdagi öquvçilarning til tajribasini (qaysi til ustun, ikkinçi til qay darajada egallangan), rivojlaniş xususiyatlari va qiziqişlarini örganadi.

Ikkinçi, loyihalaş bosqiçida muhit komponentlari böyiça bir neçta muqobil variant işlab çiqiladi va ulardan sinf şaroitiga eng mos keladigani tanlanadi.

Uçinçi, amalga oşiriş bosqiçida model öquv jarayoniga tatbiq etiladi, öqituvçi esa öquvçilarning munosabatini kuzatib boradi.

Törtinçi, refleksiv-takomillaştiriş bosqiçida kuzatuv natijalari tahlil qilinib, modelga özgartirişlar kiritiladi. Şundan söng jarayon yana birinçi bosqiçga qaytadi, biroq yangi, yuqoriroq darajada.

Kreativ modellaştiriş öqituvçidan muayyan kasbiy sifatlarni talab qiladi:

- ikkinçi tilda öquv muloqotini olib bora oliş;
- inklyuziv pedagogika asoslarini biliş;
- pedagogik kuzatuv va tahlil könikmasi;
- ijodiy tafakkur va yangilikka oçiqlik.

Şu sababli kreativ modellaştirişga tayyorlik bölajak öqituvçilar kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralişi lozim.

5. Tuşunçalarning özaro boğliqligi

Tahlil natijalari "bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalari örtasida törtta asosiy munosabat mavjudligini körsatdi (4-jadval).

4-jadval: **"Bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalari örtasidagi munosabatlar**

Munosabat turi	Mazmuni	Pedagogik ahamiyati
Ob'ekt - jarayon	Bilingval öquv muhiti modellaştiriş ob'ekti, kreativ modellaştiriş esa unga yönaltirilgan jarayon	Modellaştiriş nimaga qaratilganini aniqlaydi
Maqsad - vosita	Sifatli bilingval muhit maqsad, kreativ modellaştiriş uni yaratiş vositasi	Öqituvçi faoliyatining yönalişini belgilaydi
Tuzilmaviy	Muhitning har bir komponenti modellaştirişning alohida harakatlari orqali loyihalanadi	Modellaştirişni komponentlar böyiça rejalaştiriş imkonini beradi
Natija - qayta aloqa	Muhitning holati baholanib, natijalari modelni qayta körib çiqişga asos böladi	Jarayonning davriy va rivojlanuvçan bölişini ta'minlaydi

4-jadvalda körsatilgan munosabatlar bir-birini töldiradi. Ob'ekt-jarayon va maqsad-vosita munosabatlari tuşunçalarning vazifasini belgilasa, tuzilmaviy munosabat modellaştirişning mazmunini, natija-qayta aloqa munosabati esa uning dinamikasini ifodalaydi. Aynan oxirgi munosabat ikki tuşunçani özaro boğlaydigan asosiy halqadir: kreativ modellaştiriş muhitni özgartiradi, özgargan muhit esa öz navbatida modellaştirişning keyingi bosqiçi uçun yangi ma'lumot beradi. Şu tariqa ikki tuşunça davriy, spiralsimon rivojlanuvçi jarayonni taşkil etadi.

Bu munosabatlar asosida ularni birlaştiruvçi integrativ tuşunçani ta'riflaş mumkin: inklyuziv ta'lim şaroitida bilingval öquv muhitini kreativ modellaştiriş - öqituvçining inklyuziv sinfdagi öquvçilarning til va rivojlaniş xususiyatlaridan kelib çiqqan holda ikki tilli öquv muhitining mazmuniy, kommunikativ, hissiy-motivatsion va resurs komponentlarini ijodiy loyihalaşi, amalga oşirişi va baholaş natijalari asosida doimiy takomillaştirib borişiga yönaltirilgan maqsadli faoliyati.

Uşbu ta'rif keyingi tadqiqotlar uçun muhim metodologik tayanç bölib xizmat qiladi: u modelning tarkibiy qismlarini (komponentlar), öqituvçi faoliyatining bosqiçlarini (loyihalaş, amalga oşiriş, baholaş, takomillaştiriş) hamda samaradorlik mezonlarini aniqlaş imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ötkazilgan terminologik va mazmuniy tahlil inklyuziv ta'lim şaroitida "bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmunini aniqlaştiriş hamda ularning özaro aloqasini oçib beriş imkonini berdi.

Birinçidan, ta'lim muhiti maqsadlilik, tizimlilik, rivojlantiruvçilik, sub'ektlararo hamkorlik va imkoniyatlilik belgilariga ega pedagogik hodisa ekanligi aniqlandi. Uşbu belgilar bilingval öquv muhiti tuşunçasini ta'riflaş uçun nazariy tayanç böldi.

Ikkinçidan, bilingval öquv muhiti öz-özidan şakllanadigan til muhitidan farqli ravişda pedagog tomonidan ongli va maqsadli yaratiladi. U mazmuniy, kommunikativ, hissiy-motivatsion va resurs komponentlaridan iborat yaxlit tizim bölib, inklyuziv şaroitda har bir öquvçining har ikki tilda rivojlanişiga xizmat qiladi.

Uçinçidan, kreativ modellaştiriş an'anaviy modellaştirişdan modelning oçiqligi va özgaruvçanligi, bir neçta muqobil variant yaratilişi, öquvçining muhit hammuallifi sifatida qaralişi hamda doimiy qayta aloqaga tayanişi bilan farq qiladi. U diagnostik, loyihalaş, amalga oşiriş va refleksiv-takomillaştiriş bosqiçlarida keçadi.

Törtinçidan, ikki tuşunça örtasida ob'ekt-jarayon, maqsad-vosita, tuzilmaviy va natija-qayta aloqa munosabatlari mavjud. Ularning birgalikdagi amal qilişi bilingval öquv muhiti va uni kreativ modellaştirişni davriy, spiralsimon rivojlanuvçi yagona pedagogik jarayonga birlaştiradi. Şu asosda integrativ tuşunçaning mualliflik ta'rifi işlab çiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Özbekiston Respublikasining "Ta'lim töğrisida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, ÖRQ-637-son // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bölgan bolalarga ta'lim-tarbiya beriş tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi PQ-4860-son qarori. 2020 yil 13 oktyabr // lex.uz.
3. Верещагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма). -М.: Изд-во МГУ, 1969. - 160 с.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.
5. Слободчиков В.И. Образовательная среда: реализация целей образования в пространстве культуры // Новые ценности образования. - 1997. - № 7. - С. 177-184.
6. Турдалиев А.А. Педагогические аспекты подготовки школьных учителей к работе с детьми-билингвами в Республике Узбекистан. - 2024. - DOI: 10.58224/2541-8459-2024-6-342-351.
7. Штофф В.А. Моделирование и философия. -М.; Л. Наука, 1966. -301с.
8. Юдин Э.Г. Системный подход и принцип деятельности: методологические проблемы современной науки. -М.: Наука, 1978. -391 с.
9. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. - М.: Смысл, 2001. -365 с.
10. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. 3rd ed. - Bristol: CSIE, 2011.
11. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. -Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
12. Cummins J. Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. - Clevedon: Multilingual Matters, 2000.
13. Djabbarova F.O. From theory to practice: The role of psycholinguistics in teaching English // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. - 2023. -Vol. 27. - P. 17-22.
14. Fayziyev U., Fayziyev O'. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning vujudga kelishi va inklyuziv ta'lim muammolari // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - Vol. 6, № 4/S. - P. 276-283. - DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss4/s-pp276-283.
15. Fayziyeva O. The role of multilingual education in promoting inclusive education in Uzbekistan // O'zMU xabarlari. - 2025. - DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.8.1.8988.
16. García O., Wei L. Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. - London: Palgrave Macmillan, 2014.
17. Genesee F., Paradis J., Crago M.B. Dual Language Development and Disorders: A Handbook on Bilingualism and Second Language Learning. -Baltimore: Paul H. Brookes, 2004.
18. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - Vol. 5, № 9.- P. 444 - 454.
19. Padía L.B., Cioè-Peña M., Phuong J. Mending the intersectional gap: Supporting emergent multilinguals labeled as disabled through translanguaging and universal design for learning // Theory Into Practice. - 2024. - DOI: 10.1080/00405841.2024.2355843.
20. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. - Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 1974.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(1)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.